



**QASHQADARYO VILOYATIDA IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISH
KO'RSATKICHLARI ASOSIDA KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH DARAJASINI
BAHOLASHNING STATISTIK TAHLILI**

Muminov Fazliddin

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

ORCID: 0009-0008-1126-0824

mfazliddin312@gmail.com

Annotatsiya. Kambag'allikni qisqartirishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish asosida kambag'allikni qisqartirishning tahlili va modellari iqtisodiy o'sishni, ijtimoiy barqarorlikni va davlatning iqtisodiy siyosatini kuchaytirish maqsadida amalga oshiriladi. Ushbu tahlil va modellarda bir nechta asosiy yondoshuvlar mavjud. Quyida kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid asosiy yondoshuvlar va modellarga qisqacha to'xtalamiz. Kambag'allikka qarshi kurashishda davlat tomonidan turli yordam va subsidiya dasturlari, shuningdek, ijtimoiy himoya tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu dasturlar ko'pincha daromadi past bo'lgan oilalarga ma'lum mablag'lar yoki xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-iqtisodiy, xususiy tadbirkorlik, biznes rejalashtirish, ijtimoiy tadbirkorlik, barqaror rivojlanish, biznes modeli, iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish, innovatsion biznes modellar, barqaror biznes rivojlanishi, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, biznes-inkubatsiya, biznes - akseleratsiya.

**СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОЦЕНКИ УРОВНЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ НА ОСНОВЕ
ПОКАЗАТЕЛЕЙ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В
КАШКАДАРЬСКОЙ ОБЛАСТИ**

Муминов Фазлиддин

Университет экономики и педагогики

Аннотация. Анализ и разработка моделей сокращения бедности, основанных на развитии малого бизнеса и частного предпринимательства, проводятся в целях укрепления экономического роста, социальной стабильности и экономической политики государства. В этих анализах и моделях выделяется несколько основных подходов. Ниже мы кратко рассмотрим основные подходы и модели, связанные с сокращением бедности и развитием среднего бизнеса. В борьбе с бедностью большое значение имеют различные государственные программы помощи и субсидирования, а также развитие систем социальной защиты. Эти программы часто предполагают предоставление определённых средств или услуг малообеспеченным семьям.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, бизнес-планирование, социальное предпринимательство, устойчивое развитие, бизнес-модель, экономический рост, создание рабочих мест, инновационные бизнес-модели, устойчивое развитие бизнеса, местное экономическое развитие, поддержка предпринимательства, бизнес-инкубирование, ускорение бизнеса.

STATISTICAL ANALYSIS OF ASSESSING THE LEVEL OF POVERTY REDUCTION BASED ON SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT INDICATORS IN THE KASHKADARYA REGION

Muminov Fazliddin

University of Economics and Pedagogy

Abstract. *Poverty reduction analysis and models based on the development of small business and private entrepreneurship are carried out in order to strengthen economic growth, social stability and economic policy of the state. There are several main approaches in these analyses and models. Below we will briefly touch on the main approaches and models related to poverty reduction and the development of medium-sized businesses. In the fight against poverty, various state assistance and subsidy programs, as well as the development of social protection systems, are of great importance. These programs often involve the provision of certain funds or services to low-income families.*

Keywords: *small business, private entrepreneurship, business planning, social entrepreneurship, sustainable development, business model, economic growth, job creation, innovative business models, sustainable business development, local economic development, entrepreneurship support, business incubation, business acceleration.*

Kirish.

O'zbekistonda bugungi kunda hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishga va mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishini ta'minlash masalalariga, yniqsa, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va hududlarni barqaror rivojlanishini statistik modellashtirishga alohida e'tibor berilayotganligi sababli hududlarni barqaror rivojlanishini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni statistik baholashga katta e'tibor qaratilgan. Kambag'allikni qisqartirishning uzoq muddatli modelida ta'lim va kasb-hunar o'qitishning o'rne katta. Odamlarni malakali ishchi kuchiga aylantirish, ularning ish topish imkoniyatlarini oshiradi va ularning daromad darajasini yaxshilaydi. Kambag'allikka qarshi kurashishda mikro kredit tizimlari, kichik va o'rta bizneslarga qarz berish orqali ishlashadi. Bu model, ayniqsa, qishloq joylarida kichik tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun samarali bo'ladi. Yashash sharoitlarini yaxshilash (masalan, uy-joy qurish, sanitariya sharoitlarini yaxshilash, suv ta'minoti) ham kambag'allikni qisqartirishning muhim qismi hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekistonda bugungi kunda hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishga va mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishini ta'minlash masalalariga, ayniqsa, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va hududlarni barqaror rivojlanishini statistik modellashtirishga alohida e'tibor berilayotganligi sababli hududlarni barqaror rivojlanishini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlarni statistik baholashga katta e'tibor qaratilgan.

Ko'pgina me'yoriy-huquqiy hujjatlarda, xususan, 2020–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasida «BRM ko'rsatkichlarini tayyorlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni shakllantirish jarayonlariga xalqaro standartlar va metodologiyalarni joriy etish; BRM ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va monitoring qilish uchun mas'ul bo'lgan vazirlik va idoralarning salohiyatini mustahkamlash; BRM milliy ko'rsatkichlari uchun metodologiyalarni ishlab chiqishni aniq muddatlari ko'rsatilgan harakatlar rejasi va monitoring qilish tuzilmasini ishlab chiqish va tasdiqlash» (Kapop, 2020) kabi muhim vazifalar belgilab berilgani ham muammoni ahamiyatini yanada oshiradi. Ushbu vazifalarning samarali ijrosi respublikada birinchidan, raqamli iqtisodiyotni keng qamrovli statistik indikatorlar orqali rivojlantiradi, ikkinchidan, hududlarning barqaror rivojlanishini statistik baholab va modellashtirishni talab etadi.

Hududlarning barqaror rivojlanish salohiyatidan kelib chiqib, strategik tadqiqotlar olib borish va bu orqali raqamli iqtisodiyot tizimini yaratish lozim hamda raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini statistik omillar tizimini ishlab chiqish kabi vazifalar maqolaning dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida 2020-yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5655-sonli farmon va 2020-yil 3-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ – 4796-sonli hamda 2020-yil 20-apreldagi «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ – 4699-sonli qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi «2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi VM-841-sonli qarori va maqola mavzusiga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Xorij mamlakati olimlaridan quyidagilar barqaror rivojlanish hamda birinchi maqsadi to'g'risida juda ko'p tadqiqotlar olib borgan. Jumladan:

Simon Dresner (2002, 2008, 2008) barqaror rivojlanishning fanlararo sohasi uchun qulay va keng qamrovli ma'lumotlarga asoslangan. U barqarorlik haqida fikrlarning kelib chiqishi, evolutsiyasi va hozirgi holati to'g'risida ma'lumot bergan shu bilan birgalikda, tahlil va tanqidni taklif qilgan.

Kirk Hamilton (2007, 1998, 2000) barqaror rivojlanish ta'riflari juda ko'p bo'lsada iqtisodchilar juda boy hodisalar to'plamini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan oddiy formulaga asoslangan indikatorlarni aytib o'tgan, bu: agar umumiy farovonlik yo'lida rivojlanish pasaymasa shunda barqarorlikka erishiladi, deb ta'kidlagan.

Michael Toman va Pezzey (2005) barqaror rivojlanishning birinchi maqsadiga nisbatan shunday fikr yuritgan, ya'ni: odamlar yoki uy xo'jaliklari o'zlarining farovonliklarini maksimal darajada oshirishga harakat qilishadi, deb o'ylagan, ammo bu vaqtinchalik farovonlik yoki foyda olish vaqtining bir muncha yig'indisi ham bo'lishi mumkinligi, odamlar har lahzada har xil iste'mol turlaridan, shu jumladan sotiladigan va sotilmaydigan tovar(ish va xizmat)lardan foydalanishlari mumkinligi to'g'risidagi fikrlari natijasida, barqaror rivojlanishga bog'lagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MHD) mamlakatlari olimlari hududlarning barqaror rivojlanishi va indikatorlari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkazgan.

Alekseychuk (2008) barqaror rivojlanish ko'rsatkichini–mintaqa(hudud) rivojlanishining barqarorligini baholash uchun haqiqiy tejamkorlik indeksini moslashtirish imkoniyatlarini muhokama qilib o'zining tadqiqotlarida bayon qilgan.

Bobilev (2007) o'z tadqiqotini Rossiya mintaqalari uchun barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishga qaratgan.

Ko'rsatkichlarni ishlab chiqish bo'yicha uslubiy yondashuvlar, sohadagi xalqaro va rus tajribalarini ko'rib chiqqan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi kambag'allikni qisqartirishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning roli va uning samaradorligini baholash, o'rta biznesni rivojlantirishning kambag'allikka ta'sirini aniqlash. Kambag'allikni qisqartirishda samarali bo'lgan o'rta biznes strategiyalarini tahlil qilish. Tadqiqotning asosiy ma'lumot manbalari sifatida Qashqadaryo viloyati Statistika agentligi, Mehnat va bandlik vazirligi hisobotlari hamda ilmiy maqolalar bazasi ishlatildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha milliy ustuvor yo'nalishlarga rioya qilgan holda ishlab chiqilgan dasturlar va milliy strategiyalarga qo'yilgan vazifalarga erishish uchun, mamlakatimiz zarur axborot bazasini takomillashtirishi va ularni rivojlantirish bo'yicha o'z rejalarini ishlab chiqishi lozim. BMTning barqaror rivojlanish maqsadlar indikatorlarini shakllantirish bo'yicha tavsiyalariga asoslanib milliy ko'rsatkichlar ishlab chiqilmoqda:

Respublikamizda barqaror rivojlanishning milliy maqsadlari (Muminov, 2024).

quyidagilardan iborat.

1-maqsad. Barcha joylarda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish.

2-maqsad. Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish.

3-maqsad. Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi aholining farovonligiga ko'maklashish.

4-maqsad. Umumqamrovli va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash hamda barcha aholiga butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatini rag'batlantirish.

5-maqsad. Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish.

6-maqsad. Barcha uchun suv resurslari va sanitariyaning mavjudligi hamda ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash.

7-maqsad. Arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan barcha uchun umumfoydalanish imkoniyatini ta'minlash.

8-maqsad. Samarali bandlikni oshirish hamda erkaklar va xotin-qizlarni munosib ish bilan ta'minlash asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o'sishga ko'maklashish.

9-maqsad. Barqaror infratuzilmani yaratish, umumqamrovli va barqaror sanoatlashuv va innovatsiyalarga ko'maklashish.

10-maqsad. Mamlakat ichida tengsizlikni uning barcha ko'rinishlarida qisqartirish.

11-maqsad. Shaharlar va aholi yashash punktlarining ochiqligi, xavfsizligi va ekologik barqarorligini ta'minlash.

12-maqsad. Iste'mol va ishlab chiqarishning oqilona modellariga o'tishni ta'minlash.

13-maqsad. Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurashish bo'yicha tezkor choralarni qabul qilish.

14-maqsad. Barqaror rivojlanish maqsadlari yo'lida tinchliksevar va ochiq jamiyatlar barpo etilishiga ko'maklashish, barcha uchun odil sudlov imkoniyatidan foydalanishni ta'minlash va barcha darajalarda samarali, hisobdor va keng ishtirokka asoslangan muassasalarni tashkil etish.

15-maqsad. Barqaror rivojlanish maqsadlarida Global sheriklik doirasida amalga oshirish vositalarini mustahkamlash va ishlarni faollashtirish

Har qanday voqea-hodisani ifodalovchi indikatorlar qaror qabul qilish uchun doim muhim o'rinda turadi. Ular asosan ijtimoiy-iqtisodiy fanlarga oid bilimlarni, qarorlarni qabul qilish jarayonini boshqariladigan ma'lumotlarga aylantirishi va osonlashtirishi mumkin. Ular barqaror rivojlanish maqsadlari sari taraqqiyotni o'lchash va hisoblashda yordam beradi.

Bundan kelib chiqib biz barqaror rivojlanish indikatorlarini shakllantirishni o'rganishimiz va ularni tadbiq etishimiz lozim. Quyidagi 1-jadvalda esa indikatorlarni shakllantirish bosqichlari keltiriladi (Муминов, 2025).

Bizning fikrimizcha barqaror rivojlanish indikatorlarni statistik kuzatishlar orqali tanlash va aniqlashda foydalaniladigan tamoyillar quyidagicha izohlanadi. Maqsadga yo'naltirilganlik-barqaror rivojlanish indikatorlarni statistik kuzatish va tanlash orqali ko'rsatkichlarni aniqlashtirib tizimlashtirish va belgilangan maqsadga yo'naltirish.

Kambag'allikni qisqartirishning asosiy mezonlari

Ishlab chiqaradigan asosiy ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlarni shakllantirishda ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash	Ko'rsatkichlarni hisoblash va izohlash
Ijtimoiy o'sish	Mavjud manbalar doirasidagi ma'lumotlarni tanlash	Ko'rsatkichlarni qayta hisoblash
Ijtimoiy integratsiya	Manbalar doirasidagi tanlangan yig'ish	Hisoblashlarda aniq asos bo'lishi kerak
Ekologik barqarorlik	Ma'lumotlarni qayta ishlash asosida ishni tashkil etish	Hisoblangan ko'rsatkichlarni izohlah.

Manba: o'rganishlar natijasida muallif ishlanmasi.

Reprezentativ—bu statistik tanlanmada eng muhim tushunchadir, bu tushunchaga amal qilish orqali ma'lumotlar aniq, ravshan, ishonchli hamda statistik jihatdan ahamiyatli bo'ladi. Oddiylik—ko'rsatkichlarni aniqlash, nomlash va bir aniq tizimga solishda sodda hamda ravshan bayon etish. Davriylik—statistika va ekonometrikada bu tamoyil juda muhim, chunki statistik baholash va ekonometrik modellarning ishonchligi davrlar oralig'iga bog'liq. Sifatlilik—ma'lumotlar tegishli vazirlik va idoralar tomonidan ishlab chiqilishi lozim. Aniqlilik—ma'lumotlar aniq ishlab chiqilgan bazadan iborat bo'lishi kerak. Ishonchlilik—olingan ma'lumotlarga xato yo'qligi haqqoniy va ommaviy bo'lishi lozim. Betaraflik—ma'lumotlarni qayta ishlash va ularni barqaror rivojlanish indikatorlari bo'lgangacha xolislik bilan yondashish zarur. Aniq baholash—ma'lumotlarni statistik kuzatib tanlashda belgilangan statistik tanlash usullari orqali baholash kerak.

Barqaror rivojlanish indikatorlarini aniqlashning amaliy jihatlari quyidagilardan iborat:

- barqaror rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqib qarorlarni qabul qilishda indikatorlarni shakllantirishda ko'rsatkichlarning soddalashtirish usuliga tayanish;
- tabiatdagi o'zgarishlarni inobatga olish;
- ma'lumotlardan foydalanib indikatorlarni shakllantirishda kamchiliklarni aniqlab ularni bartaraf qilish;
- ma'lumotlardan foydalanishda turli xil toifadagi foydalanuvchilarni inobatga olgan holda sodda shakllantirish;
- tashkilot va idoralar bir-biri bilan ma'lumotlar almashishi;
- global miqyosda ma'lumotlardan kelib chiqib tegishli chora-tadbirlarni rejalashtirish;
- tashkilot va idoralarning faoliyatini baholash va h.k.

Bu jihatlar orqali mamlakatimizda 201 ta barqaror rivojlanish indikatorlarini shakllantirish rejalashtirilgan. Shulardan 2020-yilgacha 117 tasi ishlab chiqilgan bo'lib 89 tasi tayyorlanish jarayonidagi indikatorlar. 2020-yil oxirigacha 18 tasini tayyorlash rejalashtirilgan edi, 57 tasini 2021 va 2029-yillarda tayyorlash rejalashtirilgan, 14 ta indikatorlarni ishlab chiqishda muammolar mavjud. Bu indikatorlarni ishlab chiqishda 35 dan ortiq tashkilot va idoralar jalb qilingan.

Bizni fikrimizcha, barqaror rivojlanish indikatorlarini ishlab chiqish uchun ma'lumotlarni kuzatish, to'plash, ularni tartiblash hamda statistik usullar asosida hisoblash ko'p vaqt va xarajat talab qiladigan majmualar yondashuvni ta'qozo qiladi.

Biznes-inkubatsiya — bu yangi boshlovchi tadbirkorlar yoki startaplar uchun ko'mak beradigan tizimdir. Inkubatsiya dasturlari ko'pincha uzoq muddatli (6 oydan 3 yilgacha) bo'ladi, chunki ular biznesni poydevorida shakllantirishga va mustahkamlashga qaratilgan. Akseleratsiya — bu biznesni tezroq rivojlantirish uchun mo'ljallangan dastur bo'lib, u ko'proq o'sish bosqichidagi kompaniyalarga yo'naltirilgan. Akseleratsiya dasturlari qisqa muddatli (odatda 3-6 oy) bo'ladi, chunki ular korxonaning tez o'sishiga yordam beradi va investorlar bilan aloqalar o'rnatishga yo'naltirilgan. Biznes-inkubatsiya va akseleratsiya dasturlari

tadbirkorlarni va startaplarni o'z bizneslarini muvaffaqiyatli boshlash va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan resurslar bilan ta'minlaydi (2-jadval).

2-jadval

Qashqadaryo viloyati Mahallabay tizimida tashkil etilgan kichik sanoat korxonalari hisobida tashkil etilgan yangi ish o'rinlari soni va ularga ta'sir etuvchi omillar

Yillar	Mahallabay tizimida tashkil etilgan yangi ish o'rinlari soni, (ming kishi)	Mahallabay tizimida tashkil etilgan kichik sanoat korxonalari soni, birlikda	Kichik biznes subyektlari soni, (ming kishi)	Tashkil etilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar soni, (ming kishi)	Jami ishsizlar soni, (ming kishi)	Ishsizlik darajasi, foizda	Ishsizlik darajasi yuqori mahallar soni, birlikda
№	Y	X1	X2	X3	X4		
2011	125,1	333	11,48	5,88	59,3	5,8	175
2012	128,96	357	11,84	6,06	56,2	5,3	172
2013	132,9	401	12,20	6,25	58,3	5,3	171
2014	137,1	464	12,58	6,44	58,3	5,2	171
2015	141,3	530	12,97	6,64	64	5,5	167
2016	145,4	592	13,25	6,85	66,1	5,5	166
2017	150,2	675	13,79	7,06	66,1	5,3	165
2018	154,8	773	14,35	7,27	78,6	6,1	182
2019	159,6	915	16,22	7,50	130,0	9,7	176
2020	164,5	1061	20,30	7,73	125,3	9,3	170
2021	169,6	1184	25,30	7,97	147,7	11,1	162
2022	174,9	1384	31,15	8,22	137	10,2	143
2023	257,03	1660	36,42	8,33	130,6	9,3	130
2024	421,1	1859	27,98	7,66	96,6	7,3	112

Manba: o'rganishlar natijasida muallif ishlanmasi.

O'zbekiston 2026 yilgacha kambag'allik darajasini ikki baravar qisqartirishni rejalashtirmoqda. 2026 yilgacha kambag'allikni ikki baravar qisqartirish, barqaror yuqori va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri ekanini ta'kidlaydi. Buning uchun quyidagilar rejalashtirilgan:

Iqtisodiy taraqqiyot vazirligi rahbari jahon bankining o'zbekiston bilan 2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi hamkorlik dasturini olqishladi. u uchta strategik maqsadga qaratilgan: xususiy sektorni rivojlantirish orqali sifatli inklyuziv ishchi o'rinlarini yaratish; inson kapitalini rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish; yashil rivojlanish orqali aholi turmush tarzini yaxshilash va barqaror iqtisodiy rivojlanish oshirish. o'zbekistonda bir oyda kishi boshiga minimal iste'mol xarajatlari 498 ming (kuniga 16,3 ming) so'mni tashkil etadi. ushbu ko'rsatkich mamlakatdagi kambag'allik chegarasini aniqlash uchun ishlatiladi. hozirgi kunda mamlakatda rasman ish bilan band bo'lmagan 1 million 400 mingga yaqin ayollar va yoshlar bor. xotin-qizlar o'rtasida ishsizlik darajasi 13 foiz, yoshlarda esa 15 foizni tashkil etmoqda. farg'ona, samarqand, andijon, qashqadaryo va toshkent viloyatlarida bu ko'rsatkich yuqori. shu bilan birga, bugungi kunda qurilishda 104 ming, kommunal sohada 71 ming, xizmat ko'rsatish sohasida 68 ming, yengil sanoatda 46 ming nafar mutaxassisga ehtiyoj mavjud. oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasidagi mablag'larning 70 foizi kambag'al aholiga ish o'rni yaratishni nazarda tutuvchi kichik va o'rta biznes loyihalariga yo'naltirilishi belgilandi. shuningdek, kambag'al kishini ishga olgan korxonalarga bank kreditlari bo'yicha qulayliklar berilishi aytili.

Bu soha davlat tomonidan chuqur qo'llab-quvvatlanmoqda. Jumladan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida yiliga 13 trillion so'm kredit va 1,5 trillion so'm subsidiya ajratilmoqda. Buning natijasida 2022 yili 1 million, joriy yilning birinchi choragida

210 ming aholini kambag'allikdan chiqarishga erishildi. Ehtiyojmand aholini aniqlashning mamlakatimizda yaratilgan va yuqori samaradorligi tegishli xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilgan tizimlari – "Temir daftar", Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" hamda 2023 yilda yangi joriy etilgan "Ijtimoiy himoya reestri" orqali 2 million 300 ming oila, xotin-qizlar, yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan aholi moddiy yordam bilan to'la qamrab olindi. Prezidentimiz yig'ilishda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha Xitoy tajribasini o'rganish masalasiga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidladi. Davlatimiz rahbari joriy yilning 10 may kuni kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha tayyorlangan chora-tadbirlar bilan tanishish chog'ida ham bu haqda aytgan edi. O'tgan davr mobaynida shu maqsadda Xitoydan tajribali ekspertlar jalb etildi, mutasaddi idoralar vakillari Xitoyga borib, masala qay tartibda amalga oshirilganini ko'rib keldi. Kambag'allikni kamaytirishda nima uchun Xitoy tajribasidan foydalanmoqchi ekanimiz ko'pchilikni qiziqtirishi tabiiy. E'tibor qarating: 1978 yilda Xitoy aholisining 97,5 foizi kambag'al bo'lgan. 2019 yilga kelib kambag'allar ulushi 0,4 foizga tushgan, 2021 yilda esa umuman kambag'al qolmagan. Kambag'allikni tugatishning Xitoy usulida ikki omil asosiy rol o'ynagan. Ya'ni iqtisodiyotni jadal rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish hamda unga qarshi kurashning manzilli strategiyasi ishlab chiqilib, izchillik bilan amalga oshirilgan. Kambag'allarning asosiy qismi qishloqda istiqomat qilgani uchun dastlab agrar sohani jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Qishloq xo'jaligida 1 foiz o'sish qishloqlarda kambag'allikni 1,4 foiz qisqartira boshlagan (Administrator, 2025).

Xulosa va takliflar.

Bizning fikrimizcha yuqorida keltirilgan indikatorlarni tushunarli qilib ishlab chiqish hamda soddalashtirish lozim. Bundan tashqari, milliy iqtisodiyotda o'sish natijalarining o'zgarishlarini aks ettiruvchi asosiy sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish orqali real holatga baho beriladi. Natijada, iqtisodiyotning rivojlangan yoki rivojlantirishga muhtoj bo'g'inlari aniqlab olinadi.

Iqtisodiyotdagi yordamga muhtoj sohalarni aniqlash, ularni baholash va rivojlantirish orqali, iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarida tarkibiy o'zgarishlar ta'minlanadi, pirovardida aholining kam ta'minlanganlik darajasi pasayadi.

Shuning uchun fikrimizcha, aholining kam ta'minlanganlik darajasi va barqaror rivojlanishni statistik baholash uchun sifat omillari ko'rsatkichlarini ishlab chiqib tahlil qilish, xulosalar shakllantirish hamda takliflar berish lozim.

Barqaror rivojlanishning milliy maqsadlariga erishishini baholash uchun quyidagi sifat ko'rsatkichlarini taklif qilamiz.

- mehnat unumdorligi;
- tadbirkorlik subyektlarining faolligi;
- aholi bandligi darajasi;
- mehnat bozorining keskinlik darajasi;
- kambag'allik darajasi;
- iqtisodiy faollik indeksi;
- ishbilarmonlik kayfiyati indeksi.

Bu kabi sifat ko'rsatkichlari barqaror rivojlanishning hamda uning birinchi maqsadi bo'lgan aholining kam ta'minlanganlik darajasini aniq statistik baholash uchun muhim indikatorlardir.

Bu modellar, ayniqsa, ijtimoiy mas'uliyatni o'zida mujassam etgan korxonalarning rivojlanishiga yordam beradi, shu bilan birga kambag'allikni qisqartirishda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni saqlashga hissa qo'shadi.

Adabiyotlar / Ломепамыра / Reference:

Administrator (2025). KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING YANGI BOSQICHI. ERISHILGAN NATIJALAR VA MAVJUD MUAMMOLAR. [online] Uzbekistan.org.ua. Available at: <https://www.uzbekistan.org.ua/uz/107-yangiliklar/6494-kambag-allikni-qisqartirish-va-aholi-bandligini-ta-minlashning-yangi-bosqichi-erishilgan-natijalar-va-mavjud-muammolar.html>.

Dresner S. (2002) *The Principles of Sustainability*. January. Edition: 1st edition. Publisher: Earthscan ISBN: 1-85383-842-X.

Dresner S. (2008) *The four-capital method of sustainable development evaluation*. March. *European Environment* 18(2):63 – 80 p.

Dresner S. (2008) *The Principles of Sustainability*. 200 p.

Hamilton K. (2000) *Genuine Saving as a Sustainability Indicator*. The World Bank. Environment department papers. Paper No. 77. -24 p.

Hamilton K. (2007) *Genuine Saving as a Sustainability Indicator*. January. DOI:10.4337/9781782544708.00034.

Hamilton K., Clemens M. (1998) *Genuine Savings Rates in Developing Countries*. August. 28 p.

Muminov F.Sh. (2024) *Hududlarda mahallabay ishlash tizimi asosida aholi turmush darajasini oshirishni ekonometrik modellash tirish* Muminov Fazliddin Shoymardonovich Iqtisodiyot va pedagogika universiteti.

Toman M., Pezzey J. (2005) "Sustainability and its economic interpretations", in R. David Simpson, Michael A. Toman and Robert U. Ayres (ed.), *Scarcity and Growth Revisited*, Resources for the Future Press, Washington, DC, USA, pp. 121-141.

Алексейчук М.С. (2008) Чистые сбережения как индикатор оценки устойчивости регионального развития // *Регион: экономика и социология*, № 3. С. 67-77.

Бобылев С.Н. (2007) *Индикаторы устойчивого развития: региональное измерение. Пособие по региональной экологической политике*. –М.: Акрополь, ЦЭПР.

Қарор (2020) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 августдаги "Ўзбекистон Республикасининг миллий статистика тизимини янада такомиллаштириш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-4796-сон қарори.// www.lex.uz.

Муминов Ф. (2024) *Қашқадарё вилоятида камбағалликни қисқартиришни ekonometrik модельлаштириш* Ф.Муминов Иқтисодиёт ва педагогика университети ORCID: 0009-0008-1126-0824.

Муминов Ф.Ш. (2025) *Иқтисодиёт ва педагогика университети, "Умумметодологик фанлар" кафедраси катта ўқитувчиси, Ўзбекистон. Қашқадарё вилоятида камбағалликни қисқартириш бўйича амалга оширилаётган ишлар натижадорлиги*.